

## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalarini tomonidan 6757,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 103,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,7 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,2 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 55,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 53,8 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 6,7 % ga pasayish kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvariyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,9 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish – 69,7 % ga oshgan bo'ssa, tabiiy qum va gaz kondensati – 8,4 % ga, chaqiq tosh – 5,8 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish – 7,3 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	85,0	144,3	59,3
Tabiiy qum, ming t.	324,3	296,9	-27,4
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1476,5	1368,1	-108,4
Gaz kondensati, ming t.	60,3	55,2	-5,1
Chaqiq tosh, ming t.	176,1	165,9	-10,2
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	75,7	53,9	-21,8

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5861,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,7 % ini tashkil etdi.






## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida - 1,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 63,5 % (67,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 4,6 % (4,6 %) va quyi texnologiyalisi – 31,0 % (26,6 %)ni tashkil etdi.

**2019- yil  
yanvar-iyun, % da**




**2020- yil  
yanvar-iyun, % da**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 53,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 168,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,6 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,9 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 135,4 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 145,7 ming tonna portlandsement (2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 147,2 % ga o'sgan), 4,6 ming tonna tozalangan gurich (58,5 %) 46,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (14,5 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	24,9	25,7	0,8
Aroq, ming litr 100 % li spirit	1913,8	1435,8	-478,0
Paxtadan yigirligan ip, t.	3591,6	5037,0	1445,4
Polietulen, ming t.	183,6	181,1	-2,5
Polipropilen, ming t.	47,8	49,8	2,0

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 796,2 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,8 %)ini tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 55,0 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	1743,8	2065,9	322,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	28,3	19,4	-8,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	39593,7	43878,4	4284,7

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %)ini tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2168,5	2905,9	737,4
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6208,3	5555,9	-652,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	16361,3	19082,1	2720,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 34,0 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar -16,6 % ga oshganligi hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 10,5 % ga kamayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1253,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,6 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solish-tirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,4 % dan 64,2 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,5 % (2019- yil yanvar-iyun oylarida 5,9 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,4 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 9,4 % ni, Ellikqal'a tumani 9,1 % ni, To'rtko'l tumani 8,3 % ni, Beruniy 7,6 % ni, Taxiatosh hamda Chimboy tumanlari 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (104,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxtako'pir (123,1 %), Chimboy (114,2 %), Mo'ynoq (111,2 %), Qonliko'l (110,3 %), Bo'zatov (106,3 %), Taxiatosh (105,6 %), Ellikqal'a (105,3 %), To'rtko'l (105,2 %) hamda Nukus tumanlarida (104,7 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1253,5</b>	<b>100</b>	<b>104,3</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>65,0</b>	<b>5,2</b>	<b>101,2</b>
<b>Beruniy</b>	<b>95,6</b>	<b>7,6</b>	<b>100,4</b>
<b>Bo`zatov</b>	<b>8,3</b>	<b>0,7</b>	<b>106,3</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>72,9</b>	<b>5,8</b>	<b>110,3</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>24,3</b>	<b>1,9</b>	<b>101,6</b>
<b>Kegayli</b>	<b>25,7</b>	<b>2,1</b>	<b>103,3</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>73,7</b>	<b>5,9</b>	<b>101,9</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>34,0</b>	<b>2,7</b>	<b>111,2</b>
<b>Nukus</b>	<b>21,7</b>	<b>1,7</b>	<b>104,7</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>75,6</b>	<b>6,0</b>	<b>105,6</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>58,7</b>	<b>4,7</b>	<b>123,1</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>103,4</b>	<b>8,3</b>	<b>105,2</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>117,8</b>	<b>9,4</b>	<b>100,9</b>
<b>Chimboy</b>	<b>75,2</b>	<b>6,0</b>	<b>114,2</b>
<b>Shumanay</b>	<b>31,6</b>	<b>2,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>114,5</b>	<b>9,1</b>	<b>105,3</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>255,5</b>	<b>20,4</b>	<b>100,0</b>

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,8 %, shuningdek, To'rtko'l tumani 8,5 % ni, Xo'jayli tumani 7,8 % ni, va Ellikqal'a 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (161,7 %), Ellikqal'a (131,8 %), Taxtako'pir (130,7 %) Qonliko'l (130,1 %), Mo'ynoq (119,5 %) va Chimboy (118,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>804,1</b>	<b>100</b>	<b>108,9</b>
Amudaryo	40,5	5,0	101,4
Beruniy	48,1	6,0	89,0
Bo`zatov	6,9	0,9	110,3
Qonliko'l	58,8	7,3	130,1
Qorao'zak	12,6	1,6	103,3
Kegayli	16,4	2,0	98,3
Qo'ng'irot	49,2	6,1	100,6
Mo'ynoq	25,1	3,1	119,5
Nukus	12,4	1,6	105,8
Taxiatosh	52,6	6,5	161,7
Taxtako'pir	48,1	6,0	130,7
To'rtko'l	68,6	8,5	111,5
Xo'jayli	62,6	7,8	98,9
Chimboy	50,4	6,3	118,3
Shumanay	14,7	1,8	98,5
Ellikqal'a	61,6	7,7	131,8
Nukus sh.	175,5	21,8	95,6

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 17,8 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 12,3 % ni, Ellikqal'a tumani 11,8 % ni, Beruniy tumani 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (96,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Beruniy tumanida (115,4 %), Kegayli tumanida (113,5 %) hamda Nukus shahrida (111,3 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>449,4</b>	<b>100,0</b>	<b>96,9</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>24,5</b>	<b>5,4</b>	<b>100,8</b>
<b>Beruniy</b>	<b>47,5</b>	<b>10,6</b>	<b>115,4</b>
<b>Bo'zatov</b>	<b>1,4</b>	<b>0,3</b>	<b>90,0</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>14,1</b>	<b>3,1</b>	<b>67,4</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>11,7</b>	<b>2,6</b>	<b>99,9</b>
<b>Kegayli</b>	<b>9,3</b>	<b>2,1</b>	<b>113,5</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>24,5</b>	<b>5,4</b>	<b>104,5</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>8,9</b>	<b>2,0</b>	<b>93,1</b>
<b>Nukus</b>	<b>9,3</b>	<b>2,1</b>	<b>103,2</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>23,0</b>	<b>5,1</b>	<b>58,8</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>10,6</b>	<b>2,4</b>	<b>97,5</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>34,8</b>	<b>7,7</b>	<b>94,7</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>55,2</b>	<b>12,3</b>	<b>103,2</b>
<b>Chimboy</b>	<b>24,8</b>	<b>5,5</b>	<b>106,7</b>
<b>Shumanay</b>	<b>16,9</b>	<b>3,8</b>	<b>101,3</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>52,9</b>	<b>11,8</b>	<b>85,4</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>80,0</b>	<b>17,8</b>	<b>111,3</b>

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3699,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 54,8% ni tashkil etdi.

**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-iyun mldr. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Qoraqalpo'giston Respublikasi</b>	<b>6757,0</b>	<b>103,0</b>
<b>Amudaryo</b>	213,9	100,8
<b>Beruniy</b>	140,6	101,0
<b>Bo`zatov</b>	55,4	112,7
<b>Qonliko'l</b>	151,0	107,8
<b>Qorao'zak</b>	132,5	124,6
<b>Kegayli</b>	161,1	103,9
<b>Qo'ng'irot</b>	160,1	106,3
<b>Mo'ynoq</b>	71,5	110,4
<b>Nukus</b>	130,2	111,1
<b>Taxiatosh</b>	750,1	119,8
<b>Taxtako'pir</b>	96,1	109,6
<b>To'rko'l</b>	184,9	107,9
<b>Xo'jayli</b>	249,8	101,4
<b>Chimboy</b>	100,2	103,5
<b>Shumanay</b>	80,8	121,6
<b>Ellikqal'a</b>	169,5	102,7
<b>Nukus sh.</b>	3909,3	103,9


## **Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 57,8 %), Taxiatosh (11,1 %) hamda Xo'jayli (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,8 %), Mo'ynoq (1,1 %) hamda Shumanay (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Qorao'zak (2019-yil yanvar-iyin oylariga nisbatan 124,6 %), Shumanay (121,6 %), Taxiatosh (119,8 %), Bo'zatov (112,7 %) hamda Nukus (111,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Taxtako'pir (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 123,1 %), Chimboy (114,2 %), Mo'ynoq (111,2 %), Qonliko'l (110,3), Bo'zatov (106,3%), Taxiatosh (105,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (12186,0 ming so'm), Taxiatosh (10136,4 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (3548,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 658,3 ming so'm bo'lgani holda, Nukus shahrida – 796,4 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 1459,3 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 1424,3 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida – 1064,5 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 957,2 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3548,5</b>	<b>658,3</b>
<b>Amudaryo</b>	1070,4	325,4
<b>Beruniy</b>	732,3	498,0
<b>Bo`zatov</b>	2566,6	386,4
<b>Qonliko'l</b>	2952,1	1425,6
<b>Qorao'zak</b>	2506,2	460,0
<b>Kegayli</b>	2218,5	353,6
<b>Qo'ng'irot</b>	1228,4	565,1
<b>Mo'ynoq</b>	2240,2	1063,5
<b>Nukus</b>	2584,2	431,5
<b>Taxiatosh</b>	10136,8	1021,1
<b>Taxtako'pir</b>	2390,0	1458,8
<b>To'rtno'l</b>	860,1	481,1
<b>Xo'jayli</b>	2030,2	957,5
<b>Chimboy</b>	890,6	668,5
<b>Shumanay</b>	1435,8	561,9
<b>Ellikqal'a</b>	1061,0	717,0
<b>Nukus sh.</b>	12186,7	796,5



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1516,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Beruniy tumanida (82,9 %), Qo'ng'irot tumanida (70,1 %), Chimboy tumanida (63,1 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (8,5 %), Taxiatosh (12,5 %), Qanliko'l (13,4 %), Bo'zatov (20,8 %) va Kegeyli (18,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Qoraqalpog'iston Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 2493 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1041 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 41,8 %) Nukus shahriga 528 tasi (21,2 %), To'rtko'l tumaniga 277 tasi (11,1 %), Beruniy tumaniga 236 tasi (9,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-iyun oyida respublikada 355 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 159 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 47,5 %) Nukus shahrida 58 tasi (17,3 %), To'rtko'l tumanida 39 tasi (11,6 %), Amudaryo tumanida 33 tasi (9,9 %) hamda 29 tasi (8,7 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 24 ta loyiha bo'yicha 55,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 157,8 ming AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020- yil yanvar-iyun oylarida 80 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 100 % ni tashkil etti. Shu bilan birga, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining pasayganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	7	24
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	6	20
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	2058,0	55,2
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	171,4	0,2
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, <i>birlik</i>	80	80

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi sanoat  
statistikas bo'limi Tel.: (61) 224-92-08